**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Rektor G.Rixsiyeva
______________
202 1 yil “28” 08 ________

# SHARQSHUNOSLIKKA KIRISH
# FANINING O‘QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 | – San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 220 000 | – Gumanitar fanlar |
| **Ta’lim yo‘nalish:** | 60230100 | – Filologiya va tillarni o‘qitish (sharq tillari bo‘yicha) |

**Toshkent -2021**



| | |
|---|---|
| | O‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2021 yil “28” 08 dagi “1” – sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun mas’ul:**<br>Shomusarov Sh.– TDShU Arab filologiyasi kafedrasi mudiri, fil.f.d., prof. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>**1. Z.N. Shokirova**– O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Sharq tillari kafedrasi dotsenti tarix fanlar nomzodi (turdosh OTM);<br>**2. K. Qodirova** -O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti dotsenti(turdosh OTM). |

| Fan/modul kodi | O‘quv yili | Semestr | ECTS - Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|
| SK102 | 2021-2022 | 1 | 2 | |
| **Fan/modul turi** | **Ta’lim tili** | | **Haftadagi dars soatlari** | |
| Majburiy | O‘zbek/rus | | 2 | |

| | Fanning nomi | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| 1. | **SHARQSHUNOSLIKKA KIRISH (ARAB TILI)** | 30 | 30 | 60 |

2.

**I. Fan mazmuni:**

**Fanning maqsadi:** Ushbu kursni o‘qitishdan **maqsad** – talabalarni o‘zlari tanlagan sohaning nazariy-ilmiy jihatlaridan xabardor qilish, ta’lim rejasi va ulardagi fanlar blokining hamda alohida fanlarning o‘zaro aloqalarini yoritib berish, mazkur mutaxassislikning o‘ziga xos jihatlari, kadrlar faoliyat doiralari bilan tanishtirishdan iborat.

Kursning **vazifasi** – somiy tillar oilasiga mansub tillar, ayniqsa arab tilining o‘ziga xos xususiyatlari, uning taraqqiyot davrlari, bu davrlarda arab tilida yaratilgan yozma yodgorliklar, ularning o‘zaro farqlanuvchi jihatlari bilan tanishtirishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘uloltlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

Sharqshunoslikka kirish fanining asosiy vazifasi, mutaxassislikning qamrov doirasi. Arab tili fanining umumfilologik fanlar qatoridagi o‘rni. Arab filologiyasining fan sifatida shakllanish tarixi (til tarixi, arab adabiyotishunosligi, tarixi). Arab filologiyasi fanining tasnifi (arab tilining lingvistik masalalari, arab tilining adabiyotshunoslik masalalari). Arab tili metodologiyasi (intuitsiya va tahlil, so‘z va ma’no, ma’no va matn, qiyosiylik). Arab filologiyasi fanining adabiy–estetik muammolarini o‘rganish. Arab filologiyasi fanining lisoniy-uslubiy muammolarining o‘rganish.

**III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg‘ulotlar semenar, prezentatsiya, slaydlar yordamida og‘zaki va yozma savol-javob hamda test savollari yordamida o‘tkazilishi mumkin.

Ushbu kursning asosiy qismi bo‘yicha ma’ruzalar o‘qilgandan so‘ng quyidagi mavzular bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi:

1. Sharqshunoslikka kirish fanining konsepsiyalari;
2. Arab mintaqasidagi tarixiy-madaniy jarayonlar;
3. Asosiy etnik guruhlarda arab yozuvi madaniyatining shakllanishi;
4. Asosiy etnik guruhlarda badiiy so‘z san’atining yuzaga kelishi;
5. Til hodisalarining yuzaga kelish tarixi.

**IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

**Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

Ushbu o‘quv predmetining aspektlari bo‘yicha adabiyotlarni mustaqil o‘qish

va kospektlash;

Talabalarning texnik vositalar, elektron pochtalar, veb saytlar va boshqalar bilan ishlashi.

Mustaqil ish jarayonida talabalar bevosita o‘qituvchining rahbarligi va nazorati ostida muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni egallaydilar.

– bunda ular yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o‘zlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari;
– kerakli ma’lumotlarni izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlashlari;
– axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanishlari;
– an’anaviy o‘quv va ilmiy adabiyotlari bilan ishlashlari;
– elektron o‘quv adabiyotlar va ma’lumotlar banki bilan ishlashlari;
– internet tarmog‘idan foydalanishlari;
– ma’lumotlar ba’zasini tahlil etishlari;
– ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g‘oyani asoslashlari va mutaxassislar jamoasida himoya qilishlari kerak bo‘ladi.

Mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha tavsiya etiladigan mavzular:

1. Til hodisalarining bir xalqdan ikkinchisiga o‘tib, xos xususiyatlar kasb etishi;
2. Til hodisalaridagi o‘ziga xos xususiyatlarni yozma yodgorliklar yordamida ochib berilishi;
3. Arab tilida yuzaga kelgan lisoniy harakatlarning rivojlanish bosqichlari;
4. XX asrda Yevropa va Sharqiy Osiyoda arabshunoslik fanining rivojlanish bosqichlari;
5. XX asrning boshidan to shu bugunga qadar arabshunoslik sohasida yaratilgan asosiy ishlar tahlili va ular yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar.

3.

**V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

– Arabiston yarim oroli joylashgan hududda arab xalqlarining joylashishi, ularning asosiy etnik guruhlari, birlashmalari, dastlabki davlatchilikning tashkil topishi, arab filologiyasi tarixi, arab tilining shakllanishiga asos bo‘lgan siyosiy-tarixiy metodning asosiy qoidalarini ***bilishi kerak;***

– Talaba sharqshunoslik, uning tarkibiy qismlari, yo‘nalishlari, vujudga kelishi va rivojlanishi, qadimgi xalqlar madaniyatini o‘rganuvchi tarmoqlar haqidagi bilim va ***ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak;***

– Talaba mazkur kursni o‘qishi davomida sharqshunoslik va sharq filologiyasiga oid o‘zlashtirgan barcha bilimlarini amalda qo‘llay olish ***malakalariga ega bo‘lishi kerak.***

4.

**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**

Mazkur fanning o‘zlashtirishda rivojlanayotgan tanqidiy fikrlar, bilish va ijod etish faoliyati, shuningdek, ta’limning quyidagi eng samarali texnologiyalari:

- ta’limning kreativ texnologiyasi;
- ta’limning interaktiv usullari (aqliy hujum; klasterlarga bo‘lish; “Bumerang”; “Skarabey”; “Veer”; Muloqot, fikriy aloqa almashinuv texnologiyalari);
- loyihalar usuli qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyasi;
- muammoli ta’lim texnologiyasi;
- an’anaviy o‘quv va ilmiy adabiyotlar, me’yoriy hujjatlar bilan ishlash.

5.

**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.

6.

**Asosiy adabiyotlar:**


1. Omonov Q. “Sharqshunoslikka kirish” fanidan dars yetakchisi. – T., 2010.
2. O‘zbek sharqshunoslari. Tuzuvchi: M.Abdusamatov. – T.,2004
3. Quronbekov A., Vohidov A., Ziyayeva T. Fors tili. T., 2006.


**Qo‘shimcha adabiyotlar:**


1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.- 56 b. (Мы все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан).
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 48 b. (Обеспечение верховенства закона и интересов человека – гарантия развития и благополучия народа)


**Axborot manbalari:**


1. www.zivonet.uz:
2. www.bilim.uz:
3. www.almeshkat.com
4. www.drmosad.com
5. www.el-eman.com


7.

Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. O‘quv dasturi “Arab filologiyasi” kafedrasida ishlab chiqilgan va 2021-yil “27” 08 dagi “1” – sonli bayonnamasi bilan ma’qullangan.